

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILISH FAOLIYATIDA MUSTAQILLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Ergasheva Diloram*

*NamDU Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatining o'ziga xos omillari keng yoritilgan. Shuningdek bu davrda bilish faoliyatidagi o'quvchining mustaqilligi xususiyatlari haqida ham so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik maktab yoshi davri, muloqot, ta'lim-tarbiya, bilish jarayonlari, mustaqil fikr.

**Аннотация:** В статье широко рассматриваются специфические факторы познавательной деятельности учащихся младшего школьного возраста. Также говорится об особенностях самостоятельной деятельности студента в познавательной деятельности в этот период.

**Ключевые слова:** Период в возрасте начальной школы, общение, образование, познавательные процессы, самостоятельное мышление.

**Abstract:** The article covers a wide range of specific factors of cognitive activity of students at junior school age. It is also mentioned about the features of the independence of the student in cognitive activities during this period.

**Key words:** Elementary school period, communication, education, cognition processes, independent thought.

Rivojlangan mamlakatlar qatori yurtimizda xam yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda va ushbu yo'naliishlar bo'yicha muxim bo'lган, Davlat dasturlari qabul qilinmoqda. SHu kungacha ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar shiddat bilan rivojlanayotgan davr taqozosiga ko'ra muhim bosqichga ko'tarildi. Ta'lim tizimini takomillashtirish, Ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalariga bo'lган e'tibor yurtboshimiz tomonlaridan ta'kidlanishicha eng avvalo, ustoz-murabbiylar yuksak ehtiromga loyiqligini yana bir bor eslatib, pedagoglarning jamiyatdagi nufuzini oshirish kerakligini ta'kidladi.

**Uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida** tub islohotlar olib borilmoqda va ularning mazmun – mohiyatini kelajagimiz vorislari bo'lган yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, innovatsion rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilish tashkil etadi.

Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va

mustaxkamlash davri deb xisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir qatorda mustaqillik, mexnatsevarlik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mexnatsevarlik asosan o'qish va mexnat faoliyatida rivojlanadi va mustaxkamlanadi. Mustaqillik sifati bolada o'z qilayotgan mexnati unga zavq bergen taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa unda asta sekinlik bilan bo'ysinuvchanlik mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustaxkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda ma'suliyatsizlik, yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va xayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taqlid qilgan xolda o'zlashtiradi Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nixoyatda muximdir.

Shuningdek ijtimoiy xayotda xam, ta'limgar jarayonida xam shunday bir ijtimoiy psixologik muxit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish kerak, bu esa o'z navbatida mazkur ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshka odamlarning lideri deb xis kilsin. Ana shu xis bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Ushbu xayrlar ishlar o'z navbatida kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarga zamon bilan xamnafas ta'limgar tarbiya berishda muhim jihat xisoblanib, ularda:

- boshlang'ich ta'limgar ob'ektiv tarzda insonning intellektual salohiyatini rivojlanishirish va tabiiy qobiliyatlarini ishga solishga keng imkoniyatlar mavjudligiga;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining har bir tarkibiy qismida o'quvchilarning o'z mustaqil fikriga ega, o'zligin anglay oladigan, intellektual salohiyatli, ruxiy sog'lom, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib rivojlanishiga va ularga mos bilimlarlarni muntazam o'stirib borishga eng maqbul psixologik xususiyatlarini shakllantirish yuborish imkoniyatlarining mavjudligiga;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining tashkiliy, psixologik shakllarini jamiyat taraqqiyoti darajasiga va unga mos zamonaviy boshlang'ich ta'limgar qo'yilgan talablarga qarab optimal rejalashtirish, ularga o'z sohasining innovatsion yechimlarini uzluksiz yetkazib berish imkoniyatlarining mavjudligiga;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tarkib toptirishga oid mediata'limgar mavjudligi kabi omillariga alohida e'tibor berilgan.

Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini o'zaro uzviy bog'liqlikdagi tashkil etuvchilardan iborat tashkiliy psixologik-pedagogik jarayon deb qarash mumkin va undagi tashkil etuvchilar o'ziga xos maqsadli birlıklardan tashkil topgan bo'ladi. Bunda ta'limgar jarayoni - o'qitishning interfaol va innovatsion shakllari, ta'limgar mazmuni – bilimning yetarli minimumi, o'qitish natijasi – o'quvchida mustaqil o'qishga mustahkam ehtiyojni, ta'limgar istiqboli – ijtimoiy

psixolik tomonlarini e'tiborga olib, o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy moslashuv qobiliyatlarini shakllantirish kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini yuksaltirishda eng asosiy omillardandir.

Yuqorida qayd etilgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati muhitini psixologik jixatdan tarkib toptirishga talablar va e'tiborli tomonlari boshlang'ich sinf o'quvchilariga zamon talablari asosida psixologik yondashuv asosida xam ta'lim berish kerakligini ko'rsatmoqda va bugungi kunga kelib o'ta dolzARB va istiqbolli masalaga aylanmoqda. Bu borada taklif etilayotgan o'quv-bilish faoliyatining yuqori samara berishi, ya'ni ushbu faoliyatning samarali bo'lishi uchun murakkab jarayonlarning (psixologik, pedagogik, tashkiliy axborotli va h.k.) tashkiliy-tuzilmasini ilmiy-metodik jihatdan asoslab chiqish kerak. Buning uchun esa tashkiliy tuzilma asosida paydo bo'ladigan psixologik va pedagogik vaziyatlarni to'g'ri anglab yetish va ulardan foydalanishning maqbul rejalarini ishlab chiqish kerak.

Yuqorida qayd etilgan barcha muloxazalar zamonaviy boshlang'ich ta'limni tashkil etish va uning mazmunini zamonaviy taraqqiyot talablari asosida shakllantirish dolzARB muammo ekanligini ta'kidlamokda. Bunda shubhasiz zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun ilmiy-metodologik jihatdan istiqbolli yo'nalish - bu yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, chunki barkamol avlodni shakllantirishning istiqbolli metodologiyasini tadqiq etish ham uzlusiz ta'lim tizimining dolzARB muammolaridan biridir. Bunga sabab boshlang'ich ta'lim uzlusiz ta'lim tizimining asosini tashkil etishidir.

Ushbu fikrga mutaxassis-olimlarimiz ham hech qachon befarq bo'lmaygan. Ular tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi bolalarning pedagogik -psixologik xususiyatlarini o'rganish doimo eng birinchi masala bo'lib kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur soxada izlanishlar olib fanga ko'plab yangiliklar olib kirgan olim K. Mamedov fikricha: "Umuman ta'limga, xususan boshlang'ich ta'limga e'tibor yurtimizda mustaqillik nafasi esa boshlagan davrdan boshlab jiddiy ijobiy tomonga o'zgardi. Bu tabiiy hol. CHunki, boshlang'ich ta'limda bolalarimizga ilmiy bilim asoslaridan yetarli bilim berilmasa, undan keyingi rivojlanish davrida buning o'rnnini to'ldirib bo'lmaydi. Kichik mакtab-boshlang'ich ta'lim kamolot bosqichi yosh va pedagogik psixologiya fani sohalari shaxs rivojida eng mas'uliyatli va muhim rivojlanish davridan birini tashkil etadi .

Demak, hozirda boshlang'ich ta'lim mazmuniga ham, sifatiga ham zamonaviy talablar qo'yilmokda va ularga tegishli davlat me'yoriy hujjatlari (Boshlang'ich ta'lim bo'yicha nizomlar, kontseptsiyalar, Davlat ta'lim standartlari, uzviylashtirilgan davlat ta'lim standartlari va ularga mos o'quv dasturlari va shu kabilar) tayyorlangan.

Bunda boshlang'ich sinflar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bolalarning bitta o'qituvchi qo'lida ta'lim olishi maqsadga muvofiqdir.

**Boshlang'ich ta'lim** mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda o'qituvchining ma'lumotlar uzlusizligi va uzviyligini ta'minlashi o'quvchilarning o'zlashtirishini rejalashtirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bu bilan oddiydan murakkabga (osondan qiyinga) qarab bayon qilinayotgan ma'lumotlarni o'rGANISHGA mustahkam didaktik asos yaratiladi. Ushbu cohada Respublikamiz olim va mutaxassislari ko'plab ilmiy-amaliy ahamiyatga molik tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Ularning ishlari tufayli boshlang'ich ta'lim pedagogikasi ham mazmun jihatidan boyib, takomillashib bormoqda. Ushbu sohada E.G'oziev, Z.Nishanova, N.Xalilova, N.Majidov, SH. Abdullaeva, P.Ergashov, R.Mavlonova, M.Mahmudov, B. Xodjayevlar singari bir qancha pedagog-psixolog olimlarimizning tadqiqotlarida zamonaviy pedagoglarga xos sifatlar o'z aksini topgan. Keltirilgan manbalarga ko'ra zamonaviy o'qituvchi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'qituvchi o'zining tanlagan yo'nalishi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rta umumta'lim maktablarida o'tiladigan barcha fanlar asoslarini chuqur egallagan bo'lishi kerak;
- zamonaviy o'qituvchi o'z o'quvchilarini ma'naviy va ma'rifiy jihatdan savodxon bo'lishiga erisha olishi, milliy mafkuramiz g'oyalarini o'z o'quvchilari ongiga va qalbiga singdira olishda intellektual salohiyatga ega bo'lishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning psixologik xususiyatlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak;

Yurtimiz olimlari tadqiqotlarida ko'p marotaba ta'lim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishga bag'ishlangan ishlar olib borilgan. Ushbu izlanishlarda tadqiqot oldiga qo'yilgan muammoga mos didaktik va psixologik imkoniyatlar aniqlangan hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini shakllantirish tamoyillari ishlab chiqilgan.

Mazkur xususiyatlar shunisi bilan ham qimmatliki, ular tufayli pedagoglar o'z o'quvchilarini individual-psixologik xussuiyatlarini xisobga olib, ma'naviy jihatdan xam tarbiyalashga tayyor bo'ladi. Bu hozirda bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan davlat talablaridan biridir. Bunday talabning maqsadi bo'lajak avlodni ma'naviy jihatdan yetuk va o'z mustaqil fikriga ega, tafakkuri boy qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada barcha omillar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga xamda mustaqil tafakkurli bo'lishiga salmoqli hissa qo'shish bilan birga mafkuraviy immunitetini psixologik jixatlarini mustahkamlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganimizda yuqorida keltirilgan fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatida mustaqillikni

rivojlantirish ko'nikmalari boshlang'ich ta'lif mazmunini istiqbolga yo'naltiruvchi eng muxim omillardan biridir deb belgilashimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rubinshteyn S.L. Printsipy i puti razvitiya psixologii. M. 1997 g. RSFSR. PFA nashr.180-bet.
2. Z.Nishanova., va boshq.. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. T."Toshkent" nashr. 2018y.-S 45
3. Fedotova V.G. Faktory tseennostnykh izmeneniy na Zapade i v Rossii // Voprosy filosofii, 2005. №11,- S.3.
4. Xo'jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash Toshkent. 1991 y.-87b